

# MAHALLIY BYUDJETLAR DAROMADLARINI OSHIRISH IMKONIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11404062>

**Shoydaliyev Umid Eshquvat o'g'li**

*Termiz davlat universiteti,*

*"Moliya va moliyaviy texnologiyalar"*

*kafedrasi o'qituvchisi (erkin tadqiqotchi)*

**Annotatsiya:** Maqolada mahalliy byudjetlarning daromadlarini shakllanishi va daromadlarning asosiy yo'nalishlarini belgilash masalalari yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** Mahalliy byudjet, mahalliy soliqlar ob'ekti, mahalliy byudjetni rejalashtirish, mahalliy soliqlar, ijtimoiy xarajatlar, davlat byudjeti.

Zamonaviy davlatchilikda mahalliy byudjet daromadlar siyosatini samarali tashkil etish hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi vazifalarni hal etishda muhim rol o'ynaydi. Daromad siyosatini ishlab chiqishda byudjet tizimida soliq va to'lovlarni mobilizatsiya qilish bo'yicha hududlar imkoniyatlarini ob'ektiv baholash, mahalliy byudjet daromadlarining shakllantirish mexanizmlariga ta'sir etuvchi omillar samaradorligini oshirish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahalliy byudjetlarning soliqli daromad bazalarini mustahkamlash birinchidan, O'zbekiston Respublikasida byudjetlararo munosabatlarning samarali tizimini shakllantirish uchun zarur bo'lsa, ikkinchidan, mahalliy byudjetlarni "moliyaviy tenglashtirish siyosati"ni amalga oshirish uchun muhimdir.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlagan holda hamda moliyaviy barqarorlikka erishish islohotlarning hozirgi davrida davlat moliyasi tizimida va ayniqsa, byudjet tizimi barqarorligini mustahkamlashda, xususan, mahalliy byudjetlar moliyaviy imkoniyatlarini yaxshilashda muhim strategik vazifa hisoblanadi. Shu boisdan ham ta'kidlash lozimki, mahalliy byudjetlar daromadlarini boshqarish davlat tadbirlari tizimida, byudjetlararo munosabatlarni tashkil etish amaliyotida hududlardagi soliq salohiyatiga e'tibor qaratish byudjet siyosatining muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etish joizdir.

O'zbekiston Respublikasida bozor munosabatlarining shakllanishiga oid tub iqtisodiy islohotlar o'tkazilishi byudjet tizimi, jumladan, mahalliy byudjetlar ahamiyatini yanada oshiradi. Chunki, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi

mahalliy byudjetlarning moliyaviy barqarorligiga bog‘liqdir. Islohotlar chuqurlashishi bilan mahalliy byudjetlar tomonidan moliyalashtiriladigan choratadbirlar hajmi oshaveradi, shuningdek, ular ixtiyoriga qoladigan daromadlar ham kengayaveradi.

Mahalliy byudjetlar daromad bazalari imkoniyatlarini baholash va ularni oshirish hamda mustahkamlash yo‘nalishlarini belgilash, nafaqat mahalliy byudjetlar daromadlari bazasi shakllanishining amaldagi mexanizmini tahlil qilish uchun zarur, balki ushbu zaruriyat, mahalliy byudjetlarni boshqarish davlat siyosatidagi o‘zgarishlarni asoslash hamda uning istiqboldagi vazifalarini belgilashda ham sezilmoqda.

Mahalliy soliqlar va yig‘imlar o‘ziga xos tarzda klassifikatsiya qilinadi. Bunda ular davlat hokimiyati organlari va mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlari vakolatiga, o‘zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab ikkiga bo‘linishi mumkin:

- 1) qonunchilik hokimiyat organi tomonidan joriy etiladigan va mamlakatning barcha hududlarida amal qiladigan mahalliy soliqlar va yig‘imlar;
- 2) mahalliy o‘z-o‘zini boshqarish organlarining qaroriga muvofiq joriy etiladigan mahalliy soliqlar va yig‘imlar.

Mahalliy boshqaruv organlari javobgarligi va vakolatlarini takomillashtirish hamda isloh qilish masalasi rivojlangan mamlakatlar, xususan, rivojlanayotgan mamlakatlarning ham davlat moliyasini boshqarish amaliyotidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda mahalliy boshqaruv organlarining faoliyat ko‘rsatish mexanizmlarini takomillashtirish jarayonlari demokratik va ijtimoiy standartlar nazarda tutilgan xolda amalga oshirilmoqda.

2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida mahalliy byudjet daromadlari bazasini oshirish, ularning moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlashga qaratilgan byudjetlararo munosabatlarni takomillashtirish, hududlar, tuman hamda shaharlarni kompleks va mutanosib holda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiy ettirish, investitsiya muhitini yanada

yaxshilash orqali hududlarga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish kabi ustuvor vazifalar belgilangan bo‘lib mazkur vazifalarning amaldagi ijrosini ta‘minlash maqsadida rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribasini o‘rganish, ularning ijobiy natijalarini respublika amaliyotida qo‘llash muhim masala hisoblanadi. Jumladan, mahalliy byudjetlar solikli daromad bazalarini mustahkamlash ular barqarorligini ta‘minlash hamda doimiy rivojlantirish borish borasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruzasida mahalliy byudjetlarning daromad bazasini kengaytirish bo‘yicha alohida urg‘u berib o‘tdilar. Xususan, “hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni moliyalashtirish uchun mahalliy byudjetlarning mablag‘lari yetarli emas”ligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining mutanosib taqsimlanganligi hamda bunday holat ular daromadlari manbalarining tarkibiga ham bevosita bog‘liqdir. Mahalliy byudjetlar daromadlari tarkibida tartibga soluvchi daromadlar ulushining yuqoriligi ularning mustaqilligini ta‘minlash nuqtai nazaridan salbiy holat hisoblanadi hamda yuqori byudjetga qaramligini ko‘rsatadi. Tartibga soluvchi daromadlarning normativlar asosida byudjet bo‘g‘inlari o‘rtasida taqsimlanishi mahalliy byudjetlarning daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta‘minlashga va moliyaviy mustaqilligini oshirishga imkon bermaydi. Shu munosabat bilan mahalliy byudjetlarning o‘z va biriktirilgan daromadlari hajmini oshirishga asosiy e‘tiborni qaratish bilan birgalikda yashirin iqtisodiyotni qisqartirish, tabiiy va mehnat resurslaridan oqilona foydalanish, hududlarda tadbirkorlik faoliyatini keng ko‘lamda rivojlantirish talab etiladi.

Mahalliy byudjetlarni takomillashtirish borasida keskin chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy byudjetlar daromadini oshirish, ularning barqarorligini ta‘minlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda mahalliy byudjet daromadlar siyosatini samarali olib borish bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda mazkur masalaga tizimli

yondashish muhim o‘rin tutadi. Xususan, rivojlangan davlatlarda daromadlar siyosatini samarali olib borishda hamda mahalliy byudjetning daromad bazalarini belgilashda soliq potentsiali, mahalliy byudjet daromadlar tarkibini shakllantirish tartibi, solikli daromadlarning turli darajadagi byudjetlar o‘rtasida taqsimlanishi mexanizmlari kabi omillar muhim rol o‘ynaydi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlari mahalliy davlat hokimiyati idoralarining asosiy daromad manbai hisoblanib, ularning turlari har bir mamlakat soliq qonunchiligi asosida belgilanadi. Mahalliy byudjetlar ixtiyoridagi soliqlar va yig‘imlar joriy etilgan paytdan shu kunga qadar ular tarkibida, nafaqat, son jihatdan, balki mohiyat jihatdan ham o‘zgarishlarga erishildi. Bugungi kunga kelib, soliq ma‘murchiligining takomillashuvi natijasida soliqlar va yig‘imlarning ob‘ektlari, stavkalari va undirish tartiblariga o‘zgartirishlar kiritilib, mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlari mutanosibligini ta‘minlash, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy byudjetlar daromadlarining davlat byudjeti daromad laridagi ulushini hamda uning o‘zgarishini tahlil qilish, shuning asosida ularning moliyaviy holatiga baho berish orqali mahalliy byudjetlarning mustaqilligini ta‘minlash va oshirishga yo‘naltirilgan muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. Xalq so‘zi, 2017 yil 8 fevral.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat‘iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma‘ruza, 2017 yil 14 yanvar. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 104 b.
3. Kobulov K. Важность доходов местного бюджета в увеличении доходного потенциала региона //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
4. Kobulov K. Приоритетные вопросы стратегии развития доходного потенциала региона //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
5. Kobulov K. К МЕТОДОЛОГИЧЕСКИМ ВОПРОСАМ ФОРМИРОВАНИЯ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.
6. Kobulov K. МАHALLIY BYUDJET DAROMADLARI–HUDUD DAROMAD SALOHİYATINING MUHIM TARKIBIY QISMI SIFATIDA //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.

7. Kobulov K. ЗНАЧЕНИЕ МЕТОДОВ МЕЖБЮДЖЕТНОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ В ФОРМИРОВАНИИ ДОХОДНОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНА //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.

8. Kobulov K. ПУТИ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ НЕЗАВИСИМОСТИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ И УКРЕПЛЕНИЯ ИХ ДОХОДНОЙ БАЗЫ //Архив научных исследований. – 2020. – Т. 35.

9. Жалилов Ш. К., Кабулов Х. А. Система налогообложения топливно-энергетических предприятий

